



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INSON BILISH JARAYONINI TASHKIL ETUVCHI MEXANIZMLARNING MURAKKAB DIALEKTIKASI: SINERGETIK TAHLIL

Muminova Zarifa Odilovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, dekan (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson bilish jarayonini tashkil etuvchi mexanizmlarning murakkab dialektikasini sinergetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bilish jarayonining ko'p darajali va o'zaro bog'liq komponentlari — sezgi, idrok, tafakkur va ong faoliyati yagona tizim sifatida ko'rib chiqilib, ularning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan dinamik jarayonlar ochib beriladi. Maqolada shuningdek, bilish jarayonining neyropsixologik va falsafiy asoslari integrativ yondashuv orqali yoritilib, zamonaviy ilmiy paradigmalarga mos holda yangi nazariy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: bilish jarayoni, tafakkur, sinergetika, dialektika, kognitiv tizim, ong, idrok, neyropsixologiya, o'z-o'zini tashkil etish, murakkab tizimlar, integrativ yondashuv, epistemologiya.

СЛОЖНАЯ ДИАЛЕКТИКА МЕХАНИЗМОВ, СОСТАВЛЯЮЩИХ ПРОЦЕСС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОЗНАНИЯ: СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Муминова Зарифа Одилевна

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, декан (DSc)

Аннотация

В данной статье на основе синергетического подхода анализируется сложная диалектика механизмов, формирующих процесс человеческого познания. Многоуровневые и взаимосвязанные компоненты познавательного процесса — ощущение, восприятие, мышление и деятельность сознания — рассматриваются как единая система, и раскрываются динамические процессы, возникающие в результате их взаимодействия. В статье также освещаются нейропсихологические и философские основы познавательного процесса посредством интегративного подхода и выдвигаются новые теоретические выводы в соответствии с современными научными парадигмами.

Ключевые слова: познавательный процесс, мышление, синергетика, диалектика, когнитивная система, сознание, восприятие, нейропсихология, самоорганизация, сложные системы, интегративный подход, эпистемология.

THE COMPLEX DIALECTICS OF THE MECHANISMS CONSTITUTING THE HUMAN COGNITIVE PROCESS: A SYNERGETIC ANALYSIS

Muminova Zarifa Odilovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Dean (DSc)

Abstract

This article employs a synergetic approach to analyze the complex dialectics of the mechanisms that shape the process of human cognition. The multilevel and interconnected components of the cognitive process—sensation, perception, thinking, and the activity of consciousness—are examined as a unified system, and the dynamic processes that arise from their interaction are explored. The article also elucidates the neuropsychological and philosophical foundations of the cognitive process through an integrative approach and puts forward new theoretical conclusions in accordance with modern scientific paradigms.

Keywords: cognitive process, thinking, synergetics, dialectics, cognitive system, consciousness, perception, neuropsychology, self-organization, complex systems, integrative approach, epistemology.

Insoniyat tarixini tahlil qilgan paytda jamiyatda paydo bo'lgan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy inqirozlarning samarali yechimi inson tafakkurining sifat jihatdan o'zgarishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi. Mazkur qarash jamiyatning mavjud holatidagi o'zgarishlar bilan inson ta'limoti, bilim-nazariy yo'nalishlari va umumiy fikrlash usullari o'rtasidagi dinamik aloqalarni ochib beradi: tafakkur turi o'zgarishi nafaqat muammolarni qabul qilish, balki ularni yaratish, tadqiq etish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Ya'ni, "Tafakkur jarayoni faqat insonning miyasi bilan emas, balki qalbi va ruhiyati bilan ham uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlovchining ichki dunyosi qanchalik boy

bo'lsa, uning fikrlash saviyasi ham, xatti-harakati ham shunga yarasha bo'ladi" [1;565]. Shu nuqtai nazardan, tafakkur insoniyatning asosiy xaloskori, barcha muammolarning yechimi va kaliti bo'lib qoladi hamda uning evolyutsiyasi jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va axloqiy-huquqiy me'yorlarning yangilanishi bilan uzviy bog'liq holda kechadi.

Insoniyat taraqqiyoti davomida erishilgan yutuqlar ko'proq inson fikrining ijodiy faoliyati, bilimga bo'lgan intilishi va yaratuvchanlik dinamikasining sinergetik o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin etiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, tafakkur ko'p qatlamali dinamik barqarorlikka, kontekstual moslashuvchanlikka va epistemik integratsiyaga asoslanadi. Amaliyot nuqtai nazaridan esa bu yondashuv ta'lim, reabilitatsiya, kognitiv texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish uchun yangi konseptual ramkalarini shakllantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar tafakkur fenomenining ko'p qirrali tabiati, uning psixofiziologik, neyrobiologik va falsafiy asoslarini kompleks yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Xususan, Sam Houston State University olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tafakkurning psixofiziologik muammolari keng qamrovda tahlil qilinib, inson ong faoliyatining fiziologik jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda yoritilgan. University of Oregon ilmiy maktabi doirasida esa miyaning tafakkur faoliyati va uning neyropsixologik mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilib, kognitiv jarayonlarning neyron asoslari, axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlari ilmiy-metodologik jihatdan tahlil etilgan.

Zamonaviy jahon falsafasi manbalari doirasida esa tafakkur fenomeni yanada kengroq — ontologik va epistemologik kontekstda tahlil qilinadi. Xususan, G. S. Sultanova tadqiqotlarida tafakkur tarzining sinergetik tabiati asoslab berilib, tafakkur jarayoni murakkab, o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, tafakkur statik hodisa emas, balki turli darajadagi elementlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan dinamik va evolyutsion jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada ilmiy bilish jarayonining fundamental usullari kompleks tarzda qo'llanilib, tadqiqotning mantiqiy izchilligi va ilmiy asoslanganligi ta'minlandi. Xususan, analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya va deduksiya kabi usullar orqali o'rganilayotgan muammoning tarkibiy qismlari chuqur tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda yaxlit tizim sifatidagi xususiyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Insonning oliy mavjudot ekanligini belgilab beruvchi asosiy jihat bu — tafakkurdir. Tafakkur vositasida inson borliqni o'zlashtiradi va o'zgartiradi. Tafakkur orqali inson borliqqa faol ta'sir o'tkazadi hamda uning aktiv bo'lagiga aylanadi. Inson tafakkur sohibi ekan, u borliq evolyusiyasining oddiy elementi bo'lishdan evolyusiyaning harakatlantiruvchi kuchi darajasiga ko'tariladi. Tafakkur — insonning yuqori darajali qobiliyati bo'lib, nafaqat inson xatti-harakati va faoliyatini, balki butun hayotini boshqarishda faol ishtirok etadi. Tafakkur ayni mavjudlikni, makon va vaqt nuqtai nazaridan insondan ajralib turgan voqea-hodisalarni hamda kelajakni tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Professor B. To'rayev ta'kidlaganidek: "Biz insonlar tabiatdagi eng takomillashgan mavjudot ekanligimizdan, atrofimizda ro'y berayotgan hodisalarni anglay olishimiz, mushohada qilishimiz, boshqalarga ham bu haqda xabar bera olishimiz, farzandlarimizni tarbiyalay olishimiz, bilganlarimizni boshqalarga ham o'rgata olishimiz, dunyoda mustaqil faoliyat yurita olishimiz, mehnat qilishimiz, o'zimizni va o'zgalarni qadrlay olishimiz, o'z fikriga ega bo'lib, bu fikrni boshqalarga ham uzata olishimiz, tabiatda ilgari bo'lmagan narsalarni kashf qilib, ijodiy faoliyat olib borish va turli sohalarida san'atkor bo'lish kabi imkoniyatlarga ega mavjudot ekanligimiz uchun ham taqdiridan minnatdor bo'lishimiz lozim" [5;101]. Shundan kelib chiqib, inson irodasini asir etuvchi xohish-istaklarni aql va tafakkurga bo'ysundirish zarurligi, aks holda esa bu istaklar inson irodasi ustidan hukmronlikni qo'lga olishi muqarrarligi ta'kidlanadi.

Tafakkur — ongning faoliyat ko'rsatish jarayonidir. Inson fikr yurituvchi, fikrini uzatuvchi, fikrini saqlay oluvchi hamda fikri orqali olamni o'zgartirishga qodir mavjudotdir. Bunda unga ong egasi ekanligi yordam beradi. Ong inson miyasining faoliyatidir. Ya'ni, "Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimiz tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham yo'qoladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hanuz o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, ong odam va uning yaratilishi masalasi bilan bevosita bog'liq. Kimda-kim olam va odam yaratilganini tan olar ekan, ong ham Yaratganning qudrati ekanini tan olishi tabiiy" [1;476]. Shu ma'noda, ong imkoniyat bo'lsa, tafakkur ushbu imkoniyatning voqelikka aylanishi, ya'ni ongning faoliyatidir. Tafakkur fikrlash jarayoni bo'lib, u ongning namoyon bo'lishi va uning faoliyat ko'rsatishidir. Ong mohiyat bo'lsa, tafakkur hodisadir. Mavjud tajribadagi bilimlar ongning insondan tashqarida mustaqil ravishda mavjud bo'la olishini tasdiqlamaydi. Ong inson

miyasining fikrlash jarayonida namoyon bo'luvchi ma'naviy hodisa bo'lib, inson bilan birgalikda shakllanadi, takomillashadi va rivojlanadi. Ong fikrni hosil qiladi hamda voqelikning ma'naviy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U fikrning vujudga kelishidagi asosiy ma'naviy manba hisoblanadi. Demak, onga ega bo'lmagan mavjudot fikrlay olmaydi.

Tafakkur inson ongli faoliyatining, bilishining yuksak shakli hamda inson mavjudligining eng muhim belgisidir. Inson tafakkur sohibi bo'lganligi va u bilan chambarchas bog'liq nutqqa ega ekanligi tufayli borliqning ongli shakli, harakatlantiruvchisi va shu sababli oliy mavjudot hisoblanadi. Ya'ni, biologik jihatdan evolyusiyaning unchalik mukammal vakili bo'lmagan inson aynan tafakkuri orqali biosistemada va murakkab evolyusion jarayonda yashab qola oldi; nafaqat yashab qoldi, balki uning eng qudratli vakiliga aylandi. Haqiqatan ham, borliq evolyusiyasiga nazar tashlagan inson o'zidan jismonan bir necha baravar kuchliroq bo'lgan mavjudotlar uddalay olmagan vazifani — ya'ni yashab qolish va rivojlanishni — amalga oshirdi. Inson o'zini o'rab turgan olamdagi buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, o'zlashtiradi va o'zgartiradi. U o'z bilimlarini ongli ravishda xotirasida saqlaydi, eslab qoladi hamda zarur paytda esga tushiradi va ana shu bilimlar asosida ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish quroli bo'lib, inson amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun zarur shart hisoblanadi. Biror narsa to'g'risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo'ladi va bu fikrlar inson ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. "Birinchidan, inson tuzilmalar orasida eng murakkabi bo'lib, biologik, ruhiy-ma'naviy va ijtimoiy jihatlarning bir butunligidan tashkil topgan; ikkinchidan, inson tafakkurining shakllanishi murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatadi; uchinchidan, inson tafakkuri inson ma'naviy borlig'ida kaosdan tartibot tomon harakatlanishni ta'minlaydi. Zero, bilimsizlik kaosning bir ko'rinishi bo'lsa, tafakkur jarayonida inson bilimsizlikdan bilish tomon boradi, tartibsizlik o'rniga tartibot qaror topadi; to'rtinchidan, inson tafakkuri ma'naviy borliqda nohiziqlikni yuzaga keltiradi" [2;15–16]. Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda ham namoyon bo'ladi.

Inson tafakkuri — murakkab, serqirra va chuqur mohiyatga ega bo'lgan hodisa bo'lib, uzoq asrlardan buyon turli fan sohalarining asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganib kelinmoqda. Biroq ushbu olam qanchalik chuqur o'rganilsa, u haqda shunchalik ko'p bahs-munozarali fikrlar yuzaga keladi. Inson tafakkur jarayonining murakkabligi har bir insonning individual xarakterga egaligi hamda uning takrorlanmas ma'naviy-ruhiy olamiga bog'liqdir. Aynan har bir shaxsning tafakkur tarzi millat va butun jamiyat tafakkur tarzining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi va uning kelajagini belgilaydi. Tafakkur tarzining zaiflashuvi, ijodkorlik va kreativ fikrlashning susayishi jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, oxir-oqibatda ijtimoiy inqirozga olib kelishi mumkin. Tafakkur tarzi boy bo'lgan insongina o'z-o'zini reflektiv qayta tahlil qilish, faoliyatini maqsadli tashkil etish hamda hayotini uyg'un tarzda yo'lga qo'yish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Tafakkur — inson ongli faoliyatining bir shakli bo'lib, "voqelikning vositali tarzda inson miyasida aks etishidir. Obyektiv borliq inson tafakkurida tushuncha, hukm, xulosa va nazariyalar tarzida aks etib, muayyan vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi" [6;228]. Tafakkurning yuzaga kelishi fiziologik jihatdan miya faoliyati va asab tizimi bilan bog'liqdir. Tafakkur bioijtimoiy va ruhiy-ma'naviy hodisa hisoblanadi. Chunki tafakkurning yuzaga kelishi biologik jarayon bo'lsa, uning rivojlanishi va takomillashuviga ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tafakkur usuli va tarzining shakllanishiga jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, taraqqiyot darajasi va ustuvor mafkura muhim ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida, jamiyatdagi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar, ilmiy-texnik yutuqlar va kashfiyotlar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Tafakkur yuritish qobiliyati insonning nafaqat olamni bilishiga, balki murakkab vaziyatlardan chiqib ketishiga, maqsadlar qo'yishiga va ularga erishish yo'llarini aniqlashiga xizmat qiladi. Tafakkur o'z shakllari — tushuncha, hukm, xulosa — hamda metodlari — analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash, analogiya, modellashtirish, mavhumlashtirish va konkretlashtirish — orqali namoyon bo'ladi.

Insoniyat taraqqiyoti bu borliqni o'rganish, o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonidir. Boshqacha aytganda, insoniyat tarixi — bu tafakkur tarixidir. Chunki inson tafakkuri natijasida oddiylardan murakkablikka, narsa va hodisalarni shakllan va mohiyatan takomillashtirishga tomon harakat amalga oshgan. Masalan, oddiy g'ildirakdan boshlangan jarayon murakkab mexanik va avtomatik tizimlargacha rivojlandi. Yoki oddiy asboblardan lazer texnologiyalarigacha bo'lgan evolyusiyalar jarayoni ham tafakkur mahsulidir. Bu jarayon bilimsizlikdan bilimga, anglanmaganlikdan anglanganlikka, tartibsizlikdan tartibotga o'tish bilan xarakterlanadi.

Xulosa

Inson tafakkuri va bilish jarayoni murakkab, ko'p qatlamli va dinamik sinergetik jarayon bo'lib, unda

deterministik tendensiyalar bilan bir qatorda xaotik yoki indeterministik elementlar ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu jarayon neyro-kognitiv mexanizmlar, ma'lumotlar integratsiyasi, diqqat va ishchi xotira dinamikasi hamda tashqi kontekstlar (shaxsiy tajriba, til, madaniy-ijtimoiy muhit va vositalar) o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar orqali shakllanadi. Ushbu ko'p qatlamli o'zaro ta'sirlar emergent xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi va yangi kognitiv holatlarni yuzaga chiqaradi. Falsafiy nuqtai nazardan tafakkur ko'p qatlamli dinamik barqarorlik, kontekstual moslashuvchanlik va epistemik integratsiya asosida talqin qilinadi hamda reduksiyalashuvga qarshi turuvchi holistik yondashuv sifatida qaraladi. Amaliy jihatdan esa bu yondashuv ta'lim, rehabilitatsiya, kognitiv texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish uchun yangi konseptual asoslarni yaratadi. Xulosa qilib aytganda, inson tafakkuri bilish jarayonining markaziy dinamikasi bo'lib, uning imkoniyatlarini to'liq anglash uchun doimiy ilmiy tadqiqotlar talab etiladi. 6,5–7% kabi ko'rsatkichlar keng tarqalgan afsona bo'lib, zamonaviy neyroilmiy tadqiqotlar bunday yondashuvlarni rad etadi. Umuman olganda, tafakkur embodied kognisiya, holistik yondashuv va epistemik integratsiya orqali inson bilishining asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati / Q. Nazarov va boshq. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2021. – 816 b.
2. Muminova Z. O. Tafakkur ijtimoiy relevantlikning namoyon bo'lish shakli sifatida // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2023. – № 1. – B. 207–213.
3. Muminova Z. O. Tafakkurning sinergetik tahlili. – Kishinev: GlobeEdit, 2023. – 245 p.
4. Muminova Z. O. Tafakkurning dissipativ struktura sifatidagi sinergetik tahlili: fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. – 64 b.
5. To'rayev B. Borliq mohiyati, shakllari, xususiyati. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2011. – 176 b.
6. Философский словарь / под ред. И. Т. Фролова. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: Республика, 2001. – 719 с.